

**“TASDIQLAYMAN”**

**“Dasturiy mahsulotlar va axborot  
texnologiyalari texnologik parki direksiyasi”  
MChJ bosh direktorining birinchi o‘rinbosari**



**J. Radjabov**

**“Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi” MChJ ning  
Korrupsiyaviy jinoyatlarni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish bo‘yicha  
takliflar va aniq chora-tadbirlar**

**D A S T U R I**

№	Jinoyat sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar	Bartaraf etish bo‘yicha taklif va aniq chora-tadbir	Amalga oshirish mexanizmi, muddati	Kutilayotgan natija
1	Shaffoflikning pastligi va axborot yopiqligi	Davlat xaridlari, to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar, tanlov bayonnomalari va ijro hisobotlarini real vaqt rejimida ochiq portalga joylashtirish	Barcha bo‘limlar davlat xaridlari sohasidagi ma‘lumotlarni kiritishlari majburiy etib belgilanadi Ishlar boshqarmasi Yil davomida	Jamoatchilik nazorati kuchayadi, shubhali bitimlar darhol oshkor bo‘ladi

№	Jinoyat sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar	Bartaraf etish bo'yicha taklif va aniq chora-tadbir	Amalga oshirish mexanizmi, muddati	Kutilayotgan natija
2	Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish tizimining sustligi	Manfaatlar to'qnashuvini avtomatik aniqlash tizimini joriy etish. Xodim to'ldirgan deklaratsiyadagi shaxsiy ma'lumotlari (qarindoshlari, biznesi) davlat xaridlari, litsenziya oluvchilar va tekshirish obyektlari bilan avtomatik solishtirish	HR- kadrlar bo'limi Komplayens-nazorat xizmati Yil davomida	Xodim yashirin manfaatdorligini berkita olmaydi, to'qnashuv aniqlansa, tizim avtomatik ravishda rahbariyatini ogohlantiradi
3	Ish haqi, ijtimoiy kafolatlar pastligi sababli moddiy ta'sirchanlik	Korruptsiyaviy xatarlar yuqori lavozimlarga "yaxlitlik uchun qo'shimcha to'lov" tizimini joriy etish. Aniq KPI asosida oylik ish haqiga ustama to'lash	Kelasi yil budjeti muhokamasiga asoslama kiritish Moliya-iqtisod bo'limi Yil yakunida	Xodim pora olishdan ko'ra halol ishlab yuqori daromad topishni afzal ko'radi
4	Javobgarlik muqarrarligining pastligi	Har bir aniqlangan korruptsiyaviy holat bo'yicha xizmat tekshiruvi o'tkazish va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborish	Reglament joriy etish Yuridik bo'lim Komplayens-nazorat xizmati Yil yakuniga qadar	Javobgarlik muqarrarligi ta'minlanadi
5	Tashkiliy madaniyat va "korruptsiyaviy neytrallik"	Majburiy virtual reallik (VR) antikorruptsiya treningini joriy etish Xodimni yilda 1 marta korruptsiyaviy vaziyat simulyatsiyasidan o'tkazish	HR va kadrlar bo'limi Yil davomida	Xodimning korruptsiyaga qarshi immuniteti shakllanadi

№	Jinoyat sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar	Bartaraf etish bo'yicha taklif va aniq chora-tadbir	Amalga oshirish mexanizmi, muddati	Kutilayotgan natija
6	Xodimlarni "Halollik vaksinasi" bilan yetarli darajada emlanmaganligi	Yangi ishga qabul qilingan, korrupsiya xavfi yuqori bo'lgan lavozimdagi xodimlarni Bosh prokuratura huzuridagi huquqni muhofaza qilish akademiyasida tashkil etilgan o'g'natish kursda o'qitish	HR va kadrlar bo'limi Ishlar boshqarmasi Buxgalteriya Komplayens-nazorat Xizmati Yil davomida	Xodimlarda korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga nisbatan murosasizlik immuniteti yanada shakllanadi


**Komplayens-nazorat va rezidentlar bilan huquqiy hamkorlik o'rnatish xizmati boshlig'i**



**O.Ibragimov**

**“Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi” MChJ faoliyatida korrupsiyaga oid jinoyatlarning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish bo‘yicha takliflar va ular bo‘yicha ko‘rilgan choralar yuzasidan MA’LUMOT**

T/r	Tahliliy ma'lumotlar (soni)	Shundan, tahliliy ma'lumot kiritilgan:							Korrupsiyaga oid jinoyatlarning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish bo'yicha ko'rilgan choralar tavsifi ***
		Parlament (Oliy Majlis, Senati, Qonunchilik palatasi)	Prezident Administratsiyasi	Vazirlar Mahkamasi	Korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy kengashi	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi	Boshqa yuqori turuvchi tashkilotlar	9	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish Departamenti Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasining 2026 yil 15 maydagi 7/571-sonli hamda 2026 yil 22 maydagi 7/588-sonli xatlari tegishli tartibda o'rganib chiqilib, "Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi" MChJning 2026 yil 2 iyundagi 33-03-5/1061-sonli xati bilan o'rganish ma'lumotnomasi va hujjatlar yig'ima jildi yubortilgan.
2	1	-	-	-	-	-	1	Nukus shahar IIB tomonidan A.Kalmuratovga nisbatan JKning 167-moddasi 3-qismi "a"bandi bilan qo'zg'atilgan jinoyat ishi bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi soliq boshqarmasining 2026 yil 1 iyundagi 26/1-82107-sonli xatida "Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi" MChJ hujjati taftish tayinlangani ma'lum qilingan.	



**Komplyens-nazorat va rezidentlar bilan huquqiy hamkorlik o'rnatish xizmati boshlig'i**

**O.I.Ibragimov**